

AYOLLADA BACHADON BO'YIN EROZIYASI

Olimova Hulkar Olim qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Davolash ishi yo'nalishi 23/18-guruh talabasi

Annatatsiya: Bachadon bo'yni eroziyasi – bachadon bo'yni shilliq qavatining yuza shikastlanishi. Bachadon bo'yni eroziyasi esa ko'pincha jinsiy a'zodagi shishlanish kasalliklari (kolpit va boshqalar) sabab bo'ladi. Bu kasalliklarda bachadondan ko'p chiqindi ajraladi, bundan tashqari, bachadon bo'ynidagi bezlar ham ko'p shilliq ajratadi, natijada shilliq qavat yuzasi bichilib, shilinadi. Bachadon bo'yni eroziyasi abort, tug'ruq vaqtida bachadon bo'yni shilliq qavatining zararlanishi, shuningdek, gormonal jarayonlarning buzilishidan ham yuzaga kelishi mumkin. Shilliq qavatning zararlangan yuzasi (chin eroziya) tezda bachadon bo'yni kanalidan o'sib chiqqan silindrik epiteliy bilan qoplanadi – soxta eroziya vujudga keladi. Kasallik uzoq, vaqtgacha (oylab, yillab) hech qanday belgisiz kechishi mumkin. Uni qancha barvaqt aniqlansa, tez va oson davolash qilinadi. Agar kechiktirib yuborilsa, xavfli o'smaga aylanib ketishi mumkin. Bachadon bo'yni eroziyasining oldini olish uchun jinsiy a'zolarning turli yallig'lanish kasalliklarini o'z vaqtida davolash, eng muhimi muntazam ravishda yiliga ikki marta tibbiy ko'rikdan o'tib turish lozim.

Kalit so'zi: bachadon bo'yni eroziyasi, vaginat, menstruatsiya, psevdoroziya, tug'ma eroziya,

Олимова Хулкар Олим кизи

Термезский университет экономики и сервиса
Студентка направления «Лечебное дело», группа 23/18

Аннотация: Эрозия шейки матки – это поверхностное повреждение слизистой оболочки шейки матки. Чаще всего эрозия шейки матки возникает вследствие воспалительных заболеваний половых органов (кольпит и др.). При этих заболеваниях наблюдаются обильные выделения из влагалища, а также повышенная секреция желез шейки матки, что приводит к мацерации и повреждению слизистой оболочки. Эрозия может возникнуть также после аборта, родов, травматизации слизистой оболочки шейки матки, а также при гормональных нарушениях. Поврежденная поверхность слизистой (истинная

эрозия) вскоре покрывается цилиндрическим эпителием, прорастающим из цервикального канала, и формируется так называемая псевдоэрозия. Болезнь может протекать длительное время (месяцами, годами) бессимптомно. Чем раньше она диагностирована, тем проще и эффективнее лечение. В случае поздней диагностики эрозия может переродиться в злокачественное новообразование. Для профилактики эрозии шейки матки необходимо своевременно лечить воспалительные заболевания половых органов, а также проходить регулярные медицинские осмотры не реже двух раз в год.

Ключевые слова: эрозия шейки матки, вагинит, менструация, псевдоэрозия, врожденная эрозия.

Olimova Hulkar Olim qizi

Termiz Institute of Economics and Service

Student of the "General Medicine" program, Group 23/18

Abstract: Cervical erosion is a superficial damage to the mucous membrane of the cervix. It is often caused by inflammatory diseases of the genital organs (such as colpitis and others). These conditions usually lead to abundant vaginal discharge, in addition to excessive secretion from the cervical glands, which results in maceration and damage to the mucous surface. Cervical erosion can also occur due to abortion, trauma of the cervical mucosa during childbirth, as well as hormonal disturbances. The damaged mucosal surface (true erosion) is soon covered by cylindrical epithelium growing from the cervical canal, resulting in pseudo-erosion. The disease may remain asymptomatic for a long time (months or even years). The earlier it is diagnosed, the easier and faster the treatment. If diagnosis is delayed, it may develop into a malignant tumor. Preventive measures include timely treatment of inflammatory diseases of the genital organs and, most importantly, regular medical check-ups at least twice a year.

Keywords: cervical erosion, vaginitis, menstruation, pseudo-erosion, congenital erosion.

Muammoning dolzabrligi: Barcha ayollar ginekologga har olti oyda bir marta borib, ko'rikdan o'tib turishlari kerakligini biladi. Ammo odatda kamdan-kam hollarda bunga amal qilishadi, noxush alomatlar paydo bo'lishi yoki homiladorlik boshlanishini kutishadi. Bachadon bo'yni kasalliklari esa odatda yashirincha kechadi va butun ayol organizmi uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ginekologga

shikoyat mavjud emasligi yoki ba'zi bir shaxsiy noto'g'ri fikr va qo'rquvlar sababli tashrif buyurishdan bosh tortmaslik kerak. Gormonal buzilishlar va immunitetning pasayishi, hayz sikli buzilishlari; Jinsiy hayotning juda erta boshlanishi, shuningdek, erta homiladorlik va tug'ruq; Jinsiy hamrohlarning tez-tez o'zgarishi; Qoniqarsiz shaxsiy gigiena; Og'ir tug'ruq, abort va boshqa tibbiy manipulyatsiya natijasidagi mexanik jarohatlar; vaginal kontratseptivlarni noto'g'ri ishlatish yoki noto'g'ri chayish, juda qo'pol jinsiy aloqa tufayli; Siydik-tanosil tizimining yallig'lanish va infeksiyon kasalliklari, shu jumladan ularni kech va noto'g'ri davolash;

Bakterial va virusli kasalliklar; Yomon irsiyat.

Bachadon bo'yni eroziyasi bilan bog'liq vaziyat bu kasallikning aniq belgilari yo'qligi va ko'p hollarda o'zini umuman namoyon qilmasligi bilan murakkablashadi. Ammo eroziya rivojlanib borishi bilan bemorlar o'zlarida quyidagi belgilarni aniqlashlari mumkin: Menstruatsiyalar orasida qonli, ba'zan esa yiringli ajralmalar ajralishi, masalan jinsiy aloqadan keyin sodir bo'lishi mumkin; Qindan yoqimsiz hidli ajralmalar kelishi; Ko'rpoq qon kelishli va uzoq muddatli menstruatsiya; Siydik chiqarish yoki jinsiy aloqa paytida qorinning pastki qismidagi og'riqlar. Bemorni tekshirish vaqtida ginekolog dastlab bachadon bo'ynini ko'zgular yordamida tekshiradi. Natijada, uning shilliq qavatida ginekologik asbob bilan aloqa qilganda qondaydigan, sog'lom to'qimalar fonidagi yorqin qizil rangli dog' ko'rinishdagi epiteliy nuqsonlari aniqlanishi mumkin. Eroziya turiga qarab, kasallikning boshqa tashqi belgilari ham mavjud bo'ladi. Ammo har qanday holatda, shuningdek kolposkopiya ham amalga oshiriladi (bachadon bo'yni va qinni kattalashtiruv ostida tekshirish) va onkologik kasalliklarni istisno qilish uchun eroziya yuzasidan surtma olinadi va tahlil qilinadi. Bachadon bo'ynini tasvirni 25-32 marta oshiradigan optik asbob bilan tekshirish mutlaqo og'riqsizdir. Ushbu manipulyatsiya shifokorga aniq tashxis qo'yish va to'g'ri davolashni belgilash imkonini beradi. Bundan tashqari, jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalar va viruslar, OIV va gepatitlar, flora sinovlari va boshqa kasalliklar uchun tahlillar o'tkaziladi. Ginekologiyada kasallikning bir necha turlari ajratiladi: chin, psevdoroziya va tug'ma. Chin eroziya deyilganda aynan o'sha ginekologik tekshiruvlarda bosilganida qonaydigan yorqin qizil dog' tushuniladi. Bunday eroziya shunisi bilan xavfli, zararlangan hududlarda yiring paydo bo'lishi mumkin. Qoida tariqasida, chin eroziya ikki hafta davom etadi, keyin u biriktiruvchi to'qima bilan qoplanadi va psevdoroziyaga aylanadi. Bachadon bo'ynining psevdoroziyasi - bu diametri 5 mm ga teng bo'lgan dumaloq qizil hududni nazarda tutadi, uning ustida ham yiring hosil bo'lishi mumkin, ayniqsa, kasallik uzoq vaqtdan beri davom etayotgan bo'lsa, ko'pchilik hollarda esa aynan shunday bo'ladi. Psevdoroziya qonida ayol

gormonlari yuqori bo'lgan qizlar uchun xosdir va bachadon bo'yni kanali chegarasidan tashqariga chiqib ketishi mumkin. Psevdoeroziyaning xavfi uning yomon sifatli shaklga aylanishi mumkinligi bilan bog'liq. Ba'zan, yosh yoki o'smir qizlarni ko'rikdan o'tkazayotganda, ginekolog bachadon bo'ynida silindrik epiteliya siljishini aniqlaydi, kolposkopiya esa uni yorqin qizil rangga bo'yalganini ko'rish mumkin. Bu, tug'ma eroziya deb ataladi va uni davolashga hojat yo'q, chunki amalda u hech qachon onkologik kasallikka aylanmaydi. Bachadon bo'yni eroziyasini davolash Bachadon bo'yni eroziyasini davolash majburiy hisoblanadi, chunki bu kasallikni e'tiborsiz qoldirish yomon yoki yaxshi sifatli o'smalar, shuningdek, kasallikning og'ir shakllari rivojlanishiga olib keladi. O'z vaqtida o'tkazilgan keng qamrovli davolash nafaqat ayollarning sog'lig'iga hech qanday zarar yetkazmaydi, balki umuman olganda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Albatta, davolanish individual bo'lishi kerak. Kasallikni operatsiyasiz davolash ham samarali bo'lishi mumkin, bunda muayyan usul kasallikning og'irlik darajasi, kattaligi, shakstlanish tuzilishi va birgalikda kechayotgan kasalliklar mavjudligiga qarab tanlanadi. Eroziyani davolashning bir bo'laki sifatida bemorlarga yallig'lanishga qarshi va gormonal, shuningdek antibakterial va antivirus preparatlar, jumladan, mahalliy ta'sir ko'rsatuvchi preparatlar buyuriladi. Yordamchi davolash sifatida odatda immunitetni oshiruvchi va umumiy mustahkamlovchi vositalar belgilanadi. Agar patologiya erta bosqichda aniqlansa, u jarrohlik usullaridan foydalanmasdan ham butunlay davolanishi mumkin. Jarrohlik usuli bilan davolash Ba'zi bachadon eroziyasi hollari jarrohlik yordamida davolanishni talab qiladi, ular hozirgi kunda bir necha samarali usulda o'tkazilishi mumkin: Lazerli olib tashlash — eng samarali va eng zamonaviy usuldir, u sog'lom to'qimalarga zarar yetkazmasdan eng yuqori darajadagi aniqlik bilan kesish imkonini beradi. Natijada, operatsiya joyi tezda (4-6 haftagacha) va chandiqlanmasdan tuzalib ketadi. Odatda, lazerli davolash ilgari tug'magan ayollar uchun tavsiya etiladi. Kriodestruktsiya - bachadon bo'yniga suyultirilgan azot bilan ishlov berish, ya'ni uni muzlatish bilan davolash. Azot bilan aloqada bo'lganda, to'qima hujayrasidagi suv kristallga aylanadi, natijada bachadon bo'ynining zararlangan sohasi hujayraviy tuzilmasi buziladi. Bunday holatda tuzalib ketish muddati 8-10 hafta bo'ladi, lekin ushbu davolash usuli keyingi uzoq muddatli shifokor nazorati ostida bo'lishni nazarda tutadi, chunki nosog'lom hujayralar bilan birga sirt qatlamiga ham zarar yetkazilishi mumkin. Diatermokoagulyatsiya - bachadon bo'yni eroziyasini yuqori chastotali elektr toki bilan kuydirish. Bu ayollar konsultatsiyasida ushbu patologiyani davolashning eng keng tarqalgan usul hisoblanadi, ammo u juda og'irli bo'lib, keyinchalik chandiq hosil bo'ladi. Bunday davolanish farzandlari bo'lgan va tug'ishni rejalashtirmayotgan

ayollarga tavsiya etiladi. Kimyoviy koagulyatsiya - bu usulda zararlangan bachadon bo'yni sohasiga kasal hujayralarni yemirishga qaratilgan maxsus preparatlar bilan ishlov beriladi. Bu muolajadan keyin chandiqlar qolmaydi, shuning uchun davolash usuli tug'magan ayollarga ham mos keladi. Radioto'lqinli davolash - eroziyali bachadon bo'yni sohasiga radioto'lqinlarning yuqori energiyasi bilan ishlov beriladi va to'qimaga hech qanday bosim tushmasligi sababli to'qimalar minimal darajada zararlanadi. Kuyish butunlay mustasnodir, chunki bu usul zararlangan hujayralardagi suv molekularining bug'lanishiga asoslanadi. Natijada, chandiqlik shakllanmaydi va tuzalish vaqti 3-5 haftaga teng. Radioto'lqinli davolash og'riqsizdir. Elektroekstsiziya - bachadon bo'ynining zararlangan hududini kesib tashlash. Tug'magan ayollarda bachadon bo'yni eroziyasini davolash shart emas degan fikr mavjud. Ha, agar bachadon bo'yni eroziyasi hajmi kichik bo'lsa, bu ba'zan fiziologik norma hisoblanadi va doimiy nazorat qilishdan tashqari, organizmga boshqa aralashuvlar belgilanmaydi. Ammo shuni yodda tutish kerakki, hatto bunday kichik eroziya ham infeksiya uchun kirish eshigi hisoblanadi, demak jinsiy a'zolar kasalliklari paydo bo'lishiga bilvosita yordam berishi mumkin. Yana bir sababi, oldingi vaqtlarda, tug'magan ayollarga kuchli zarar yetkazmaydigan usullar mavjud emas edi, barchasi chandiqlik va boshqa murakkabliklar qoldirardi. Ammo bugungi kunda barcha shart-sharoitlar mavjud, shuning uchun eroziyani davolashni kechiktirish kerak emas. Bachadon eroziyasini davolash usuli qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ba'zi tavsiyalarga amal qilish kerak, jumladan, 6 hafta davomida jinsiy faoliyatni to'liq rad etish. Jinsiy aloqa qilishni davom ettirish faqatgina bachadon bo'yni tekshiruvini o'takzish asosida olingan ma'lumotlarga ko'ra ginekolog ruxsatidan keyin mumkin hisoblanadi. Bundan tashqari, bu vaqtda vannalar, saunalar, suzish havzalariga borish, hammomga kirishdan saqlanish kerak. Gigienik tamponlarni ham vaqtincha ishlatmaslik tavsiya etiladi. Og'irlik ko'tarish va jismoniy faollik bo'yicha cheklolar mavjud. Eroziyani xalqona tabobat yordamida davolash usullari, odatda, u yoki bu vositali tamponlardan foydalanish yoki turli chayishlarni o'z ichiga oladi, ular esa bu patologiyani davolay olmaydi. Biroq, ulardan ba'zilari operatsiyadan keyingi davrda tiklanish uchun yordam beradi. Bundan tashqari, davolanishdan so'ng, ayollar qin ajralmari holatini kuzatish kerak, ularning ko'payishi tiklanishning normal qismidir. Agar ajralma pushti yoki jigarrang, biroz qon aralashgan shaffof suyuqlik bo'lsa va miqdori ko'p bo'lmasa, u holda tashvishlanishning hojati yo'q. Barchasi asoratlarsiz kechmoqda. Operatsiyadan 8-20 kun o'tgach, bir necha soat ichida yakunlanadigan yengil qon ketishi kuzatilishi mumkin. Bu oddiy fiziologik jarayondir. Ammo agar ajralmalar qonsimon va miqdori ko'p bo'lsa, og'riq va isitma bilan davom etsa, imkon qadar tezroq shifokor bilan

bog'lanish yoki tez yordam chaqirish kerak, chunki bunday holat darhol aralashuvni talab qiladi. Bachadon eroziyasini muvaffaqiyatli davolashdan keyin ayollar homiladorlikni har qanday qo'rquvsiz rejalashtirishlari mumkin. Ayniqsa, bunda barcha surunkali kasalliklar ham davolangan bo'lsa. Zamonaviy operatsiyalardan keyin hech qanday qarshi ko'rsatmalar yo'q, ayniqsa agar eroziya operatsiyasiz davolangan bo'lsa. Bachadon bo'yni eroziyasini oldini olish

Xulosa

Bachadon bo'yni eroziyasi ayollar salomatligi uchun keng tarqalgan va muhim ginekologik muammo hisoblanadi. Kasallik ko'pincha uzoq vaqt davomida yashirin shaklda kechishi mumkin, shuning uchun barvaqt tashxis qo'yish va profilaktika choralarini ko'rish muhim ahamiyatga ega. Vaqtida davolash kasallikni to'liq bartaraf etish imkonini beradi va xavfli oqibatlarining oldini oladi. Profilaktik choralar ichida muntazam ginekologik ko'riklardan o'tish, jinsiy a'zodagi yallig'lanish kasalliklarini davolash va gormonal muvozanatni nazorat qilish alohida o'rin tutadi. Ayollar o'z sog'lig'iga mas'uliyat bilan yondashishi, muntazam ravishda shifokor ko'rigidan o'tishi bachadon bo'yni eroziyasini oldini olishning eng samarali yo'lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаева, Д. Ш. Акушерлик va ginekologiya. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2021. – 412 б.
2. Айтматова, Ш. Қ. Bachadon bo'yni kasalliklari va ularning davolash usullari // Tibbiyot jurnali. – 2022. – №3. – Б. 56–63.
3. Карахаллис, В. Г. Гинекология: учебник для студентов медицинских вузов. – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2020. – 528 с.
4. Кулаков, В. И., Серов, В. Н. Практическая гинекология. – Москва: Медицина, 2019. – 672 с.
5. World Health Organization. Cervical cancer prevention and control. – Geneva: WHO, 2021. – 84 p.